



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

УДК: 616.98:578.828HIV-084:614.2(575.1)

OIV-INFEKSIYASI BIRLAMCHI PROFILAKTIKASINI AHOLI ORASIDA SAMARALI TASHKIL ETISHNING TIBBIY VA IJTIMOY ASOSLARI.



Yuldashev Nuraddin Baxodirovich
Urgench RANCH texnologiya universiteti, O'zbekiston

nuraddinyuldashov1432@gmail.com

Orcid:0009-0004-0391-2192

+998 94 230 14 32



Mavlonov Namoz Xalimovich
Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston

namoz_mavlonov@bsmi.uz

Orcid:0000-0003-0348-9860

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi orasida OIV-infeksiyasining birlamchi profilaktikasini samarali tashkil etishning tibbiy va ijtimoiy asoslari o'rganilgan. Tadqiqot doirasida OIV-infeksiyasi, uning yuqish yo'llari va oldini olish choralari bo'yicha aholining bilim darajasi tahlil qilindi. 19–60 yoshdagi 590 nafar respondent ishtirokida so'rovнома o'tkazilib, yosh, jins, ta'lim darajasi, oilaviy holati va migratsion faollik kabi omillar inobatga olindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, uyushmagan yoshlar va mehnat migrantlari orasida OIV-infeksiyasi hamda uning profilaktikasi bo'yicha bilimlar yetarli emas. Ayniqsa, jinsiy madaniyatning pastligi va ishonchli axborot manbalarining cheklanganligi kasallik tarqalishi uchun xavf omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar asosida aholining turli guruhlari, xususan uyushmagan yoshlar va mehnat migrantlari uchun yo'naltirilgan birlamchi profilaktika tadbirlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: OIV-infeksiyasi, birlamchi profilaktika, jinsiy madaniyat, aholi salomatligi, mehnat migrantlari.

МЕДИЦИНСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕРВИЧНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ ВИЧ-ИНФЕКЦИИ СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ.

Юлдашев Нураддин Баходирович, Мавлонов Намоз Халимович

Аннотация. В статье изучены медицинские и социальные основы эффективной организации первичной профилактики ВИЧ-инфекции среди населения. В ходе исследования проанализирован уровень информированности населения о ВИЧ-инфекции, путях её передачи и мерах профилактики. Анкетный опрос проведён среди 590 респондентов в возрасте от 19 до 60 лет с учётом пола, возраста, уровня образования, семейного положения и миграционной активности. Результаты показали недостаточный уровень знаний о ВИЧ-инфекции, особенно среди неорганизованной молодёжи и трудовых мигрантов. Установлено, что низкая сексуальная культура и ограниченный доступ к достоверным источникам информации



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

являются значимыми факторами риска распространения инфекции. На основе полученных данных обоснована необходимость совершенствования и дифференциации мер первичной профилактики ВИЧ-инфекции с акцентом на неорганизованную молодёжь и лиц, вовлечённых в трудовую миграцию.

Ключевые слова: ВИЧ-инфекция, первичная профилактика, сексуальная культура, общественное здоровье, трудовые мигранты.

MEDICAL AND SOCIAL FOUNDATIONS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF PRIMARY PREVENTION OF HIV INFECTION AMONG THE POPULATION

Yuldashev Nuraddin Baxodirovich, Mavlonov Namoz Xalimovich

Abstract. This article examines the medical and social foundations for the effective organization of primary HIV prevention among the population. The study analyzes the level of public awareness regarding HIV infection, its transmission routes, and prevention measures. A questionnaire survey was conducted among 590 respondents aged 19–60 years, considering gender, age, educational level, marital status, and migration activity. The results revealed an insufficient level of knowledge about HIV infection, particularly among unorganized youth and labor migrants. Low sexual culture and limited access to reliable information were identified as significant risk factors contributing to the spread of HIV. Based on the findings, the necessity of improving and differentiating primary HIV prevention strategies with a focus on unorganized youth and labor migrants is substantiated.

Keywords: HIV infection, primary prevention, sexual culture, public health, labor migrants.

Kirish. OIV infeksiyasi butun dunyo mamlatlari bo'yicha tarqalib, aholining mehnatga yaroqli qismini epidemik jarayonga tortishi orqali, ko'pchilik davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta xavf tug'dirdi [3, 4]. Bundan tashqari uning epidemiyasining og'ir ijtimoiy, iqtisodiy oqibatlari, davolashning qimmatligi, hozirgi kunga qadar maxsus profilaktika choralari mavjud emasligi sababli, sog'liqni saqlash tizimining ko'p muammolari ichida alohida o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasi ilk marotaba 1987 yilda ro'yxatga olingan (Xaitov R.M. va boshqalar, 1995) va ko'p yillar davomida sporadik xarakterga ega bo'lib kelgan. 2003 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida jami 1760 nafar OIV infeksiyasi va 48 nafar OITS bilan kasallangan bemorlar ro'yxatga olingan bo'lib, OIV bilan kasallanganlarning 74% inyeksion giyohvand moddalarni iste'mol qilinishi orqali kasallikni yuqtirib olganligi aniqlangan. 1995 yilga n

isbatan 2003 yilda OIV bilan ro'yxatga olingan giyohvandlar soni uch barobarga ortgan. Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarning asosiy yosh guruhi 18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan. Ular orasida OIV-musbatlar sonida o'sish kuzatildi va bu holat Respublikada OIV infeksiyasi bo'yicha epidemiyaning tuzilishini sezilarli darajada o'zgartirdi [1, 2].

Respublikada OIV infeksiyasining tarqalishida 2000-2009 yillarda parenteral yo'l orqali yuqish yetakchi o'rinni (45,5%-90,0%) egallagan bo'lsa, 2010 yildan boshlab, OIV infeksiyasining jinsiy aloqa yo'li orqali yuqish salmog'i ortib bordi (38,5%-69,1%) [5].

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, demokratik jarayonlar yuzaga chiqib, migratsion jarayon kuchaydi, aholining turli xorijiy mamlakatlarga turizm, dam olish, o'qish va ishga borish masalalari hal etildi. Buning oqibatida aholining migratsion faolligi bir necha marta ortdi, bu bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yetakchi o'ringa chiqib boshladi. Bu ayniqsa, mehnatga layoqatli shaxslar orasida uchrab, 18-45 yoshdagi erkak va ayollar mehnat migratsiyasi kuchaydi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Yuqorida keltirilgan faktlar bilan birgalikda migratsiya bilan bog'liq ko'plab muammolar kelib chiqdi, bular orasida jinsiy madaniyatning o'ta pastligi alohida ajralib qoldi. Agar bu holatga respublikamizda urbanizatsiyaning kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlar ekspansiyasini qo'shsak, yoshlar orasida jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, shu jumladan OIV-infeksiyasining ko'payish tendensiyasini izohlash mumkin, bu esa e'tiborni jalb qiladigan holatdir.

Bugungi kunda yoshlarning, ayniqsa mehnat migratsiyasiga jalb etilgan yoshlarning jinsiy madaniyat bo'yicha dunyoqarashi tor, OIV-infeksiyasining birlamchi profilaktikasi to'g'risida tasavvuri past, deb hisoblab kelingan, ammo buni tasdiqlovchi bironta jiddiy tibbiy-ijtimoiy tadqiqot o'tkazilmagan. Xalqimiz mentaliteti, odob-ahloq meyorlaridan kelib chiqqan holda oilada, uyushgan jamoalarda (maktab, litsey, oliy o'quv yurti va boshqalar) bu ta'qiqlangan mavzu bo'lgani, ochiq manbalarda bu to'g'risida yetarlicha axborot yo'qligini ham hisobga olsak, yoshlarning bu masalada orqada qolayotganini tushuntirsa bo'ladi. Bu yoshlarning jinsiy madaniyat ochiq bo'lgan mamlakatlarga ishga, o'qishga borishi esa ularning o'zlarini yo'qotib qo'yishlariga sabab bo'lib kelganligi e'tirof etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, shu jumladan OIV-infeksiyasi tarqalishining oldini olishning tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish va ular asosida ushbu patologiya faol birlamchi profilaktikasini tashkil etish davr talabidir.

Material va usullar. Ko'tarilayotgan masalaning tibbiy-ijtimoiy tomonlari to'g'risida to'liq tasavvur hosil bo'lishi uchun OIV-infeksiyasining faol birlamchi profilaktikasi asoslarini yaratishdan oldin aholining shu infeksiya to'g'risidagi ma'lumotlari o'rganildi. Buning uchun "Aholining OIV-infeksiyasi, uning birlamchi profilaktikasi to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini baholash anketasi" ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Unda jami 30 ta savol bo'lib, ular 3 qismga bo'lindi: respondent to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar; OIV-infeksiyasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar; OIV-infeksiyasining oldini olish bo'yicha umumiy ma'lumotlar. Jami uyushmagan va uyushgan aholi orasida so'rov o'tkazilib, unga tasodifiy tanlash yo'li bilan jami 590 nafar respondent jalb qilindi. Asosan 19-60 yoshli, turli jinsdagi, har xil ma'lumotlarga, kasbga taalluqli aholi jalb qilindi. Ularga anketalar tarqatilib, uni to'ldirish so'raldi.

Natija va muxokama. Barcha respondentlar 4 ta yosh guruhiga bo'lindi: 19-29 yosh ($45,25 \pm 2,05\%$, $n=267$); 30-39 yosh ($29,66 \pm 1,88\%$, $n=175$); 40-49 yosh ($16,44 \pm 1,53\%$, $n=97$); 50-59 yosh ($8,64 \pm 1,16\%$, $n=51$). Jins bo'yicha tarqalish quyidagicha bo'ldi: ayollar $68,14 \pm 1,92\%$ ($n=402$), erkaklar $31,86 \pm 1,92\%$ ($n=188$). Tasodifiy tanlangan respondentlar guruhlari orasida yoshlarning ko'p bo'lgani tabiiy, chunki mamlakat aholi orasida ham yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Yosh-jins bo'yicha tanlangan kontingent va guruhlar bir biriga reprezentativ bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi, chunki shundagina haqqoniy natijalar olish hamda asosli xulosalar qilish mumkin bo'ladi.

OIV-infeksiyasi tarqalishiga sabab bo'luvchi omillardan biri oilaning mustahkamligi hisoblanadi, shu sababli respondentlarning oilalari to'g'risidagi ma'lumot ham olindi. Ma'lum bo'lishicha, tadqiqotga jalb etilganlarning $60,68 \pm 2,01\%$ i ($n=358$) oilali bo'lib, $31,69 \pm 1,92\%$ i ($n=187$) oila qurmaganlar bo'lishdi, shuningdek ular orasida ajrashganlar ($3,22 \pm 0,73\%$, $n=19$) va bevalar ($4,41 \pm 0,84\%$, $n=26$) ham bo'lishdi. Bu holat bo'yicha ham turli guruhlarning bo'lishi olinadigan natijalar haqqoniyligini ta'minlashi shubxasizdir.

Natijalar sofliigiga erishish maqsadida respondentlarning yashash manziliga ham e'tibor berildi, chunki shahar va qishloq aholisining dunyoqarashlarida farq bor. Shundan kelib chiqqan holda respondentlarning 351 nafari ($59,49 \pm 2,02\%$) shaharda istiqomat qiluvchilar, 239 nafari ($40,51 \pm 2,02\%$) qishloqda yashovchilar bo'lishdi.

Anketaning pasport qismi bo'yicha asosiy shu ma'lumotlar so'ralgan bo'lib, respondentlar to'g'risida yetarlicha ma'lumot bera oldi. Shu sababli uning ikkinchi qismi OIV-infeksiyasi tarqalishiga zamin yaratuvchi savollardan iborat edi. Shu savollarga batafsil javob olish uchun har bir berilgan savolda javob variantlari bo'lib, javobning aniq va to'liq bo'lishini ta'minladi.




TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Respondentlardan O'zbekistondan turli maqsadlarda tashqariga chiqqanligi so'ralganda ularning $30,68 \pm 1,90\%$ i ($n=181$) xorijga safar qilishganini, $69,32 \pm 1,90\%$ i ($n=409$) esa mamlakatdan chetga chiqmaganlarini ko'rsatishdi. Tabiiyki, bunday holatda xorijga safar qilishganining sabablari ham qiziqish uyg'otadi. Ma'lum bo'lishicha, jami $11,53 \pm 1,31\%$ ($n=68$) respondentlar xorijga turizm bo'yicha chiqqan (1-rasm).



1-rasm. Respondentlarning xorijga chiqqanliklari sabablari bo'yicha taqsimlanish parametrlari, %

Ma'lum bo'lishicha, o'rganilganlarning $3,39 \pm 0,75\%$ i ($n=20$) o'qish uchun xorijga chiqqan, e'tiborli tomoni respondentlarning $15,93 \pm 1,51\%$ i ($n=94$) xorijga ish bo'yicha chiqqan, ularning asosiy qismi esa mehnat migrantlari bo'lgani aniqlandi.

Xorijda bo'lish davomiyligiga ham e'tibor berish lozim topildi, aniqlanishicha xorijda bo'lgan barcha respondentlarning ($n=181$) asosiy qismi xorijda 1 yilgacha bo'lishgan (1 oydan bir necha oygacha) - $19,66 \pm 1,64\%$ ($n=116$). Qolgan respondentlar turli muddatlarda xorijda bo'lishgan: 2-5 yil $9,32 \pm 1,20\%$ ($n=55$), 6-10 yil $1,69 \pm 0,53\%$ ($n=10$). Undan ortiq muddatlar kuzatilmadi. Demak, xorijga chiqqanlarning asosiy qismi sayohat va mavsumiy ishlar uchun xorijga chiqqan.

Shunday qilib, OIV-infeksiyasi tarqalishi va uning birlamchi profilaktikasi bo'yicha aholining bilim darajasini o'rganish bo'yicha respondentlarni tanlashda ularning yoshi, jinsi, turar joyi, kasbi, ma'lumoti, oilaviy ahvoli bo'yicha ma'lumotlar yig'ilib, to'liq axborot olindi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha ularning teng tarqalganligi esa guruhlar bo'yicha reprezentativlikni ta'minlab, mavzu bo'yicha haqqoniy natijalar olish uchun zamin yaratdi. Respondentlarning 1/3 qismi ($30,68\%$) xorijga chiqqanlari ma'lum bo'lib, ularning $11,53\%$ i sayohat maqsadida, $3,39\%$ i o'qish uchun, $15,93\%$ i ish bo'yicha xorijga chiqqanlari ma'lum bo'ldi, ularning asosiy qismi mehnat migrantlari ekanligi aniqlandi.

Jinsiy madaniyat uchun jinsiy hayotning o'rni kattaligini hisobga olib, tadqiqotga jalb qilingan shaxslardan jinsiy hayotni necha yoshda boshlaganlari so'raldi. Jami o'rganilganlarning 146 nafari ($24,75 \pm 1,78\%$) jinsiy hayotni boshlashmaganlarini bildirishdi, qolgan respondentlar uni turli yoshlarda boshlaganini ma'lum qilishdi. Jinsiy hayotni 14 yoshdan 21 yoshgacha boshlaganlar soni 203 nafarni ($34,41 \pm 1,96\%$) tashkil etgan bo'lsa, jinsiy hayotni 21 yoshdan 26 yoshgacha boshlaganlar 219 nafarni ($37,12 \pm 1,99\%$) tashkil etdi. Qolgan respondentlar ($3,73 \pm 0,78\%$, $n=22$) jinsiy hayotni 26




TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

yoshdan 37 yoshgacha boshlagani aniqlandi. Jinsiy hayotni erta boshlash ko'pchilikni tashkil etgani turmushga chiqishning erta yoshlarda amalga oshirilishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Respondentlarning jinsiy hayotni necha yoshda boshlaganliklari bo'yicha taqsimlash ko'rsatkichlari, %

Anketaning 12-savolidan boshlab, uning uchinchi qismi boshlanib, bevosita OIV-infeksiyasi va uning profilaktikasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan boshlangan. Respondentlarga tushunarli bo'lishi uchun har savolga yo'naltiruvchi javoblar keltirilgan.

Respondentlardan jinsiy yo'l bilan yuquvchi kasalliklar borligidan xabardorligi so'ralganda ularning $18,14 \pm 1,59\%$ i ($n=107$) bilmasliklarini ko'rsatishgan. Shunisi e'tiborliki, ularning asosiy qismi ($92,52 \pm 2,54\%$, $n=99$) oila qurmagan, o'rta ma'lumotga ega, 25 yoshgacha bo'lgan qizlar bo'lishdi. Bu holat oilada va o'rta ta'lim maktablarida jinsiy madaniyat bo'yicha ma'lumotlar berilmasligi, ijtimoiy tarmoqlarga kirish ta'qiqlanining oqibati, deb hisoblaymiz. Bunday ma'lumotning yo'qligi ushbu qizlarni jinsiy hayotga tayyorlashda qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiydir.

Hayoti davomida OIV-infeksiyasini aniqlash uchun qon topshirganlar soni bor-yo'g'i $57,63 \pm 2,03\%$ ni ($n=340$) tashkil etgani ham havotirli, chunki hech bo'lmasa shu paytda bu infeksiya to'g'risida ma'lum axborotga ega bo'lish mumkin edi.

OIV-infeksiyasi mavjud shaxslarda klinik belgilar namoyon bo'lmasligini bilishlarini $78,81 \pm 1,68\%$ ($n=465$) respondentlar bildirishdi, bu katta foiz asosan tibbiyot xodimlari ($n=104$) va oliy ma'lumotlilar ($n=196$) hisobiga bo'lgani aniqlandi.

Respondentlarning bilim darajasini sinash uchun berilgan savollardan biri "OIV-infeksiyasiga qarshi vaktsina mavjudmi?" bo'lib, $55,59 \pm 2,05\%$ so'rov o'tkazilganlar bunga to'g'ri javob berishdi, $13,05 \pm 1,39\%$ ($n=77$) bo'lsa xato javob berishdi. Fikrimizcha bu ushbu infeksiya, uning oqibatlari bo'yicha tasavvurga ega bo'lmay, e'tiborsizlik oqibati hisoblanadi. Jami 185 nafar so'rov o'tkazilganlar ($31,36 \pm 1,91\%$) "bilmayman", deb javob berishlari ushbu infeksiya bo'yicha aholining bilim darajasi juda pastligini ko'rsatuvchi belgilardan biri hisoblanadi.

Respondentlarga OIV-infeksiyasidan himoyalaniishning bir nechta yo'llari keltirilib, tanlash huquqi berildi, ular orasida "bilmayman", degan javob ham bor edi, chunki profilaktika vositalari va usullarining ko'pligi tibbiyotga, profilaktikaga aloqador edi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Javoblar orasida e'tiborlilarinigina keltirib o'tishni lozim topdik: shaxsiy gigiyena $34,07 \pm 1,95\%$ ($n=201$), prezervativdan foydalanish $23,39 \pm 1,74\%$ ($n=138$), shifoxona va salonlarda bir martalik anjomlardan foydalanish $30,68 \pm 1,90\%$ ($n=181$), tartibsiz jinsiy aloqadan saqlanishni $24,24 \pm 1,76\%$ ($n=143$) respondentlar tanlashgan, bu holda ham 155 nafar ($26,27 \pm 1,81\%$) respondentlar "bilmayman", deb javob berishgan. Bu holat ham OIV-infeksiyasi bo'yicha aholi orasida yetarlicha bilim va ko'nikmalar yetishmovchiligi, deb hisoblandi.

Bu holat ayniqsa, o'rta ma'lumotga ega bo'lganlarda ($n=110$) aniq namoyon bo'ldi, shuningdek, uyushmagan yoshlar orasida "bilmayman" javobi ko'p aniqlanganligi ham profilaktika tadbirlari faqat uyushgan yoshlar (maktab, litsey, kollej, universitet) orasida o'tkazilib, uyushmagan yoshlar chetda qolayotganining belgisidir. Mehnat migrantlari asosan uyushmagan yoshlar orasida ko'pchilikni tashkil etishini hisobga olsak, OIV-infeksiyasi birlamchi profilaktikasi vektorini uyushmagan yoshlarga qaratish lozimligini ko'rsatdi. Bu esa masalaning tibbiy va ijtimoiy jihatlarini hal etish uchun zamin yaratadi.

Shunday qilib, OIV-infeksiyasi va uning profilaktikasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, respondentlarning jinsiy yo'l bilan yuquvchi kasalliklar borligini bilmasliklari $18,14\%$ ni tashkil etib, ularning $92,52\%$ i oila qurmagan, o'rta ma'lumotga ega, 25 yoshgacha bo'lgan qizlar bo'lishdi. OIV-infeksiyasini aniqlash uchun qon topshirganlar $57,63\%$ ni tashkil etdi, OIV-infeksiyasi mavjud shaxslarda klinik belgilar namoyon bo'lmasligini bilishlarini $78,81\%$ respondentlar bildirishdi, bu tibbiyot xodimlari va oliy ma'lumotlilar hisobiga bo'lgani aniqlandi. Profilaktika yo'li sifatida shaxsiy gigiyenani $34,07\%$, prezervativdan foydalanishni $23,39\%$, shifoxona va salonlarda bir martalik anjomlardan foydalanishni $30,68\%$, tartibsiz jinsiy aloqadan saqlanishni $24,24\%$ respondentlar tanlashgan, $26,27\%$) respondentlar "bilmayman", deb javob berishgan. Uyushmagan yoshlar orasida "bilmayman" javobi ko'p aniqlanganligi ham profilaktika tadbirlari faqat uyushgan yoshlar orasida o'tkazilib, uyushmagan yoshlar chetda qolayotganining belgisidir. Mehnat migrantlari asosan uyushmagan yoshlar orasida ko'pchilikni tashkil etishini hisobga olsak, OIV-infeksiyasi birlamchi profilaktikasi vektorini uyushmagan yoshlarga qaratish lozimligini ko'rsatdi.

OIV-infeksiyasi profilaktikasi samaradorligini ta'minlaydigan omillardan biri shu mavzu bo'yicha axborotni olish hisoblanadi. Agar OIV-infeksiyasi bilan duch kelinsa axborotni olish qiyin emas, ammo bu infeksiya bilan duch kelmagan holatda uni olish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Sizda bor axborotni qayerdan olgansiz?", degan savolga javoblar turlicha bo'ldi. Ko'pchilik respondentlar OIV-infeksiyasi bo'yicha axborotni tibbiyot xodimlaridan olishlarini bildirishdi - $41,86 \pm 2,03\%$ ($n=247$), ammo shu respondentlarning 104 nafari, ya'ni $42,11\%$ i tibbiyot xodimlarinnig o'zlari ekanliklarini hisobga olsak, haqqoniy raqamlar $24,24\%$ ni tashkil etadi. Demak, so'rov o'tkazilganlarning faqat $1/4$ qismigina axborotni tibbiyot xodimlaridan olishgan, bu esa kam miqdor ekanligi ta'kidlab o'tildi (1-jadval).

1-jadval

Aholi tomonidan OIV-infeksiyasi haqida ma'lumotni olish manbalari bo'yicha taqsimot ko'rsatkichlari

Manbalar	Raqamli ma'lumotlar	
	Mutloq son	Nisbiy (%) son
Tibbiyot xodimlari	247	$41,86 \pm 2,03$
O'quv dargohi (kollej/universitet)	199	$33,73 \pm 1,95$
Ijtimoiy tarmoqlar	143	$24,24 \pm 1,76$
TV, radio	76	$12,88 \pm 1,38$
Do'stlar yoki tanishlar	36	$6,10 \pm 0,99$
Ma'lumotga ega emasman	107	$18,14 \pm 0,69$




TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Ko'rinib turibdiki, jami 483 nafar ($81,86 \pm 1,59\%$) respondent OIV-infeksiyasidan xabardor, ammo qolganlari ($18,14 \pm 0,69\%$, $n=107$) ma'lumotga ega emasliklarini bildirishdi. Anketalar tahlil qilinganda ularning barchasi yoshlar, ko'pchiligi esa uyushmagan yoshlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa masalani yanada jiddiylashtiradi, chunki ularning ko'pchiligi xorijga mavsumiy ishlarga chiqadiganlar bo'lishdi.

Shundan so'ng respondentlardan OIV-infeksiyasining yuqish yo'llari to'g'risida so'raldi va ularga javob variantlari berildi, ular orasida avval taxlil qilingan, keyin esa o'z tasdig'ini topmagan yuqish yo'llari ham bor edi - qo'l berib so'rashish orqali, qon so'ruvchi hasharotlar orqali, o'pishganda so'lak orqali, quchoqlashganda ter orqali. Respondentlarga oldindan ma'lumot berilmay, ular olgan oldingi bilimlariga tayangan holda javob berdilar (3-rasm).



3-rasm. OIV-infeksiyasining asosiy yuqish yo'llari to'g'risidagi ma'lumot bo'yicha respondentlar javoblari, %

Ko'rinib turibdiki, so'ralganlarning asosiy qismi vazifalar yechimiga to'g'ri yondoshib, javoblarni to'g'ri berishgan, masalan 476 nafar ($80,68 \pm 1,63\%$) respondent OIV-infeksiyasi jinsiy aloqa orqali yuqishini ko'rsatishgan bo'lsa, 461 nafari ($78,14 \pm 1,70\%$) tibbiyot xodimlarining aralashuvini (inyeksiya, jarrohlik asboblari, stomatologik muolajalar) ko'rsatishgan.

Ushbu o'tkazilgan tibbiy-ijtimoiy tadqiqotlar natijasida quyidagi o'ziga xos xususiyatlar aniqlandi:

birinchidan, OIV-infeksiyasi faol birlamchi profilaktikasi o'tkazilayotgan kontingentlar orasida uyushmagan yoshlar chetda qolib ketayotgani aniqlandi;

ikkinchidan, OIV-infeksiyasi faol birlamchi profilaktikasi aholi uchun umumiy o'tkazilib, o'rta ma'lumotga ega aholi uchun ushbu ma'lumotlarning o'zlashtirilishi past bo'layotgani aniqlandi;

uchinchidan, uyushmagan yoshlar orasida jinsiy yo'l bilan yuquvchi kasalliklar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lganlar kam bo'lib ($18,14\%$), OIV-infeksiyasi, uning yuqish yo'llari to'g'risida ma'lumot olishga to'sqinlik qilayotgani ko'rsatib berildi;

to'rtinchidan, ushbu infeksiya profilaktikasini o'tkazishda mehnat migrantlarining asosiy qismi chetda qolib ketayotgani ma'lum bo'ldi;



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

bashinchidan, uyushmagan yoshlar orasida jinsiy savodxonlik pastligi, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zlashtirilishiga to'sqinlik qilayotgani isbotlab berildi;

oltinchidan, balog'at yoshidagi qizlar (12-18 yosh) orasida jinsiy hayot, jinsiy madaniyat, shu yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, shu jumladan OIV-infeksiyasi to'g'risida ma'lumotlar amaliy jihatdan yetkazilmayotgani ko'rsatib berildi;

yettinchidan, uyushmagan yoshlar orasida OIV-infeksiyasi, uning birlamchi profilaktikasi to'g'risida ma'lumot olish mumkin bo'lgan manba amaliy jihatdan yo'qligi isbotlab berildi.

Ushbu aniqlangan 7 ta jihat OIV-infeksiyasi faol birlamchi profilaktikasi asoslarni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Залялиева М.В., Рузибакиев Р.М. Генетические и иммунологические особенности ВИЧ-1 инфекции в Узбекистане. Монография. – Ташкент, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 112 с.
2. Меркушкина Т.А., Сафиуллин А.И., Бегиева Р.Р., Залялиева М.В. Изучение факторов неспецифической резистентности у детей при ВИЧ/СПИД заболевании. //Журн. теорет. и клин. медицины. – 2016 г. – №4. – С. 145-148.
3. Всемирная организация здравоохранения. Guideline on HIV service delivery (publication record). Geneva: WHO; 2025.
4. Атабеков Н.С. с соавт. О выявляемости ВИЧ-инфекции в Узбекистане // Ж. Теоретической и клинической медицины.- Ташкент: 2015, №4, спец. выпуск. стр.- 163-165.
5. Kang S., Tanaka T., Narazaki M., Kishimoto T. Targeting Interleukin-6 Signaling in Clinic // Immunity. – Cell Press. – 2019. – Vol. 50, N4. – P.1007-1023.
6. Takeuchi T. and Ohno H. IgA in human health and diseases: Potential regulator of commensal microbiota. //Front Immunol. 2022; 13: 1024330. Published online 2022 Nov. 10. Doi: 10.3389/fim-mu.2022.1024330.
7. World Health Organization (WHO). <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/hiv-aids.13.07.2023>.
8. Centers for Disease Control and Prevention. Preexposure Prophylaxis for the Prevention of HIV Infection in the United States—2021 Update: A Clinical Practice Guideline. Atlanta: CDC; 2021.
9. Centers for Disease Control and Prevention. Clinical Guidance for PrEP (HIV Nexus). 2025.
10. Centers for Disease Control and Prevention. HIV Treatment as Prevention (TasP/U=U) — evidence-based overview. 2024.
11. Clinicalinfo.HIV.gov. HIV/AIDS Treatment & Prevention Guidelines (expert panels).
12. Cohen M.S., Chen Y.Q., McCauley M., et al. Prevention of HIV-1 Infection with Early Antiretroviral Therapy. N Engl J Med. 2011;365:493–505. doi:10.1056/NEJMoa1105243.